

A.AVLONIY DIDAKTIK QARASHLARINING JADIDCHILIK TA'LIMI RIVOJIDAGI AHAMIYATI VA ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYASI MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15427443>

Sattarova Sevinch Berdiyor qizi

JDPU Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi

Toshboyeva Mastura Berdiyrovna

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 32-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk jadid ma'rifatparvari, mahoratli adib A.Avloniy didaktik qarashlari, jadidchilik ta'limi rivojida ahamiyati va zamonaviy ta'lim jarayonidagi integratsiyasi muammolari haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar

Didaktika, ma'rifat, jadid, o'qituvchi, o'quvchi, yangi, yangilik, maktab, dars, ma'naviyat, madaniyat

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'zni beqiyosdir.

Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning ko'p asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishda o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. Yaqin tarixga nazar tashlasak, xalqning ma'rifati yo'lida umrini bag'ishlagan insonlar yashab o'tganligini, ularni bizning davrgacha meros qilib qoldirgan buyuk ma'naviyat zahirasi borligini, izlanib, o'rganib bilib olishimiz, undan hammani bahramand qilishimiz mumkin.

Turkiston o'lkasida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yangi usul maktablarining ochilishi, hamda bu maktablarda o'qitishga mo'ljallangan darsliklarining yaratilishi milliy uyg'onish pedagogikasining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Jadidchilikning asl mohiyati maorifni tubdan isloh qilish uchun

qaratilgan harakat hisoblanadi. Ma'lumki "jadid" so'zi "yangi", "yangilik" degan ma'nolarni anglatadi. Insoniyat tarixida jamiyatga kirib kelgan yangiliklar doimiy to'siqlar, qarshiliklarga uchraganligi sir emas. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ta'limda bo'ladigan jamiki o'zgarishlar xalq tomonidan osonlikcha qabul qilinmagan. Albatta, bu to'siqlar har qanday ma'rifatparvarning hayotini hatarga qo'yib, turli to'siqlardan qo'rqmay olg'a intilishida, o'zida kuch topib yo'lida davom etishida kuchli sabr va matonat talab etgan. Insonning ham jismonan, ham ma'nan yuksalish davri qiyinchiliklarda toblanib, komillik sari yetaklagani bor haqiqatdir.

Jadidlarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va G'arb ma'rifatchilari, faylasuflarining nazariy merosini egallashga intilish, ular mamlakatni taraqqiyot yo'lga olib chiqishning garovi G'arb va Sharq madaniyatlarini uyg'unlashtirib, xalqning ko'zini ochish va shu asosda mukammal jamiyatga ega bo'lish g'oyasi tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik tushunchalarining shakllanishiga olib keldi. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga kirib kelgan jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ta'lim va tarbiya tizimining tubdan o'zgartirilishi millat ijtimoiy hayotining yaxshilanishiga ham turtki bo'ldi. Sababi, xalq ancha savodli va ma'rifatli bo'la boshladi. Jadid usulidagi maktablarning vujudga kelishi bilan ta'limda dunyoviy fanlarning ham kiritilishi yuzaga keldi. An'anaviy ta'lim berish usullarida o'zgartirishlar kiritildi. Asosan, tabiiy fanlarning kiritilishi, hamda ona tili va adabiyot fanlarining o'qitilish usullarining rivojlantirilishi bunga misol bo'la oladi. Jadid pedagoglaridan Munavvarqori Abdurashidxonov darslarda, asosan, ko'rgazmali qurollardan foydalanishni yo'lga qo'ydi. Mahmudxo'ja Behbudiy, hamda Abdurauf Fitrat yozma va og'zaki nutq o'stirish usullarini qo'llaganligini, Abdulla Avloniy dars jarayonida ifodali o'qish turlari va texnik vositalardan foydalanganligini ko'rish mumkin.

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. O'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, Jadid pedagogikasining yorqin vakili taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinch muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari ham xarakterli bo'lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya

tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

Shuningdek, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilinganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma'rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi ta'lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko'zga tashlanadi. 2017-yilning 3-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ushbu uchrashuvda madaniyat va san'at sohasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar o'rta tashlandi. Mazkur yig'ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so'z bordi, yosh iste'dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g'oya, tashabbus va takliflar bildirildi: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tish zarur deb bilaman, u ham bo'lsa, uni o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir."

Shu ma'noda Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.

Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqrar bo'lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta'limiy, tarbiyaviy g'oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz.

Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida tavallud topgan. Ijodkor o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedgogdir. U birinchilardan bo'lib o'zbek teatrini professional teatrqa aylantirdi, matbuot, maorif sohasi rivojiga hissa qo'shdi. U Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Avloniyning mehnati yuksak qadrlanib unga o'zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda uzoq yillik mehnati uchun 1925-yilda "Mehnat qahramoni" unvoni, 1930-yilda "O'zbekiston maorifi zarbdori" unvoni berilgan. Shuningdek, adib milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shganligi uchun 2020-yil 30- sentyabr sanasida "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning "Birinci muallim" asari ham o'ziga xos o'ringa ega.

Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi:

Maktab sizni inson qilur,
 Maktab hayot ehson qilur,
 Maktab g'ami vayron qilur,
 G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!
 Maktabdadur ilm-u kamol,
 Maktabdadur husn-u jamol,
 Maktabdadur milliy xayol G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Bu she'rda Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch deb maqtaydi. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kungacha ahamiyatlidir!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar - Toshkent, "Ma'naviyat", 2009.
2. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" - T., "O'qituvchi", 1992.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet